



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Обид Мамаюнович Пардаев</b> Коммунал хизматларни кўрсатишда креатив ёндошув асосида синергетик самарага эришишнинг инновацион йўналишлари	87
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева</b> Подходы к исследованию мультиатрибутивных параметров на рынке образовательных услуг вузов: рекомендации и методология	92
<b>Durbek Mirzaaxmadov</b> Xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasi	96
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Дилафруз Каршиевна Усманова</b> Социальное партнерство как основа диверсификации национального туристского продукта Узбекистана	99
<b>Farida Abdusalimovna Axmedjanova, Sadoqat Murodjonava Vahobova</b> O'zbekiston turizm xavfsizligini ta'minlashdagi huquqiy va amaliy chora-tadbirlar tahlili	109
<b>Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов</b> Хизмат кўрсатиш тизимида зиёрат туризмини ўрни ва ўзига хос хусусиятлари	111
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Marjona Otabekovna Asliddinova</b> Navoiy viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalarini qo'llash	114
<b>Зумрад Исламовна Усманова</b> Развитие сферы услуг и туристической индустрии в Узбекистане: тенденции, вызовы и перспективы	117
<b>Матлуба Абдиманабовна Куймуратова</b> Туризмнинг турлари ва улар таркибида экологик туризмнинг ўрни ва аҳамияти	121
<b>Хасан Абдусаидович Рахимов</b> Туризм ва меҳмонхона соҳаси самарадорлигини оширишда қабул қилинадиган бошқарув қарорларининг таснифи	125
<b>Askar Axrorovich Siddikov, Shukurullo Nusratullo o'g'li Haqqulov</b> Turizm va mehmonxona sanoatining iqtisodiy ahamiyati	128
<b>Akbarjan Sabirjanovich Madaxanov, Zaynab Sattarovna Naimova, Akmal Akbarjanovich Madaxanov</b> Ekologik va rekreatsion turizm destinatsiyalarini yaratish va ulardan foydalanishda inson omili masalalariga doir mulohazalar	132
<b>Nozima Miraxmad qizi Toirova</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish tendentsiyalari: innovatsion yondoshuvlar va ishlab chiqarish samaradorligi	137
<b>Farida Abdusalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o'g'li Ismatullayev</b> Turizm va mehmondo'stlik industriyasida standartlashtirish va muvofiqlikni baholash xizmatlarining takomillashtirish yo'llari	141
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova</b> Navoiy viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	144
<b>Shaxnoza Toshpulatova</b> Tarixiy arxitektura yodgorliklarining turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyati va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri	147
<b>Sitora Otabekovna Xamroyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova</b> Innovatsion turizm sohasida zamonaviy marketing reklamalarining o'rni	150
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Jahongir Bakhodirovich Ergashev</b> Korxonalarda xarid faoliyatini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari	153

**Farida Abduxalimovna Axmedjanova** – SamISI, Servis kafedrasining dosenti, t.f.n.,  
**Sadoqat Murodjonava Vahobova** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

## O‘ZBEKISTON TURIZM XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI HUQUQIY VA AMALIY CHORA-TADBIRLAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda turizm xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qonuniy asoslar, amaliy chora-tadbirlar va standartlar tahlil qilingan. Mavjud muammolar sifatida infratuzilma, kadrlar tayyorgarligi va texnik ta’minot yetishmasligi ko‘rsatilgan. Muallif turizm xavfsizligini yaxshilash uchun yagona milliy standart ishlab chiqish va uni joriy etish zarurligini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** turizm xavfsizligi, standartlar, O‘zbekiston Respublikasi milliy standarti, ISO, xavf-xatarlarni boshqarish, sanitariya-gigiyena, xavfsizlik tizimi.

**Kirish.** Hozirgi davrda turizm sohasi global miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, u mamlakatlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, tashqi savdo balansini yaxshilash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xalqaro imijni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu borada qator strategik dasturlar qabul qilinib, izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohaning barqaror va xavfsiz faoliyat yuritishi uchun esa turistlar xavfsizligini ta’minlash alohida e’tiborni talab etadi. Sayyohlarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkinging himoyasi, shuningdek, tabiiy va texnogen xavflarga tayyorgarlik darajasi turizm infratuzilmasining ajralmas komponenti sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, turistik faoliyatda xavfsizlik masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud qonunchilik asoslarini o‘rganish, amaliyotdagi muammolar va ularning yechimlarini aniqlash, xavfsizlik standartlarini joriy etish va ularni amalda qo‘llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston olimlari tomonidan turizm xavfsizligi borasida ko‘plab muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Sh. T. Toshboyev, A. A. Azizov, N. A. Yo‘ldoshev va boshqalar O‘zbekistonda turizm sohasidagi xavfsizlikni huquqiy tartibga solish masalalarini o‘rganishgan. Ularning tadqiqotlarida quyidagilar alohida ta’kidlangan: olimlar “Turizm to‘g‘risida” va “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunlarning amaliy qo‘llanilishi, ayniqsa, xorijiy turistlar xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyatini qayd etganlar.

D. M. Ergashev va X. M. Jumaniyozov kabi tadqiqotchilar O‘zbekistonda turizm xavfsizligi bilan shug‘ullanuvchi idora va tuzilmalar faoliyatini o‘rganishgan. Ularning tahlillarida quyidagilar ko‘rsatilgan: O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi xavfsiz turizmni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqqan. Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi turizm xavfsizligi tizimida muhim rol o‘ynaydi. “Turistik politsiya” konsepsiyasining joriy etilishi esa turistlar bilan ishlashda ijobiy natijalar bergani qayd etilgan.

Z. S. Karimova, B. Sh. Abdullayeva va boshqa mutaxassislar turizm xavfsizligini amaliy jihatdan ta’minlash masalasiga urg‘u berganlar: turistik obyektlarda videokuzatuv tizimlarining o‘rnatilishi, xavfsizlik xodimlarining ingliz tilida so‘zlasha olishini ta’minlash bo‘yicha treninglar, favqulodda holatlarda evakuatsiya va yordam ko‘rsatish bo‘yicha yo‘riqnomalar ishlab chiqilgan.

M. I. To‘xtasinova va L. K. Ortiqovanning tadqiqotlarida xalqaro tajriba – ayniqsa, Turkiya, BAA, Tailand kabi davlatlarning turizm xavfsizligidagi yondashuvlari O‘zbekiston tajribasi bilan solishtirilgan. Ular O‘zbekistonda xavfsizlik masalasida “Smart tourism” texnologiyalarining joriy etilishi zarurligini ta’kidlaydilar. Mehmonxonalar, aeroport va temiryo‘l stansiyalarida xavfsizlik choralari joriy etilgan bo‘lsa-da, ularni axborot texnologiyalari bilan kuchaytirish tavsiya etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida turistlar xavfsizligini ta’minlash tizimi, huquqiy-me’yoriy baza, amaliy choralar, mavjud muammolar va ularning yechimlari kompleks tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston Respublikasida turizm xavfsizligini ta’minlashga doir huquqiy-me’yoriy baza izchil shakllantirilgan. Xususan, “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunning 35-va 37-moddalarida sayyohlarning hayoti, sog‘lig‘i va mulkini himoya qilishga qaratilgan qator huquqiy kafolatlar belgilangan. Ushbu normalar asosida davlat va mahalliy boshqaruv organlari, Ichki ishlar hamda Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, shuningdek boshqa tegishli idoralar tomonidan turizm xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgustdagi 669-son qaroriga muvofiq xorijiy sayyohlarni kuzatib borish va ularning xavfsizligini nazorat qilish tartibi belgilangan. Bu hujjat turistlarning harakatlanish yo‘nalishlarini aniqlash, zarurat tug‘ilganda ularning joylashuvi haqida tezkor ma’lumot olish va xavf yuzaga kelganda tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Amaliy mexanizmlar qatorida, yirik turistik zonalarda va diqqatga sazovor obyektlarda xavfsizlik xodimlari doimiy navbatchilik olib boradi. Tog‘li hududlar, cho‘l zonalari va boshqa xavfli tabiiy sharoitlarda sayohat qilishda litsenziyalangan gid va yo‘l ko‘rsatuvchilardan foydalanish majburiy hisoblanadi.

Ekstremal va sarguzasht turizm yo‘nalishlarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar qutqaruv xizmatlari bilan oldindan tuzilgan shartnomalar asosida hamkorlik qiladi. Shu tarzda alpinistlar, speleologlar yoki rafting ishtirokchilari uchun xavfsizlik kafolatlari kuchaytiriladi.

O‘zbekistonda turizm xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha bir qator milliy standartlar ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Jumladan:

- **O‘z DSt 3220:2023** – “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar”. Ushbu standart mehmonxona inshootlarining yong‘in xavfsizligi, sanitariya me’yorlari, favqulodda chiqish yo‘llarining mavjudligi kabi talablarni o‘z ichiga oladi.
- **O‘z DSt ISO 21101:2022** – “Sarguzasht turizmi. Xavfsizlikni boshqarish tizimlari. Talablar”. Ushbu xalqaro standartga asoslangan hujjat ekstremal turizm faoliyatlarida xavfsizlikni tizimli boshqarish zaruratini belgilaydi.

Biroq, standartlarning amaliyotda to‘liq joriy etilishi quyidagi omillar sababli murakkab kechmoqda:

- Hududlar o‘rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlar (shahar va qishloq hududlari o‘rtasida);
- Texnik vositalarning yetishmasligi (monitoring, yong‘inga qarshi tizimlar);
- Xodimlarning malaka darajasining pastligi;
- Kiberxavfsizlik tizimlarining turizm subyektlarida keng joriy etilmaganligi.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda O‘zbekistonda turizm xavfsizligiga oid yagona milliy standart mavjud emas. Sayyohlik kompaniyalari, gidlar, mehmonxonalar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchilar xavfsizlik choralari o‘z qarashlariga ko‘ra tashkil qilmoqda. Bu esa xavfsizlik yondashuvlarining notekis bo‘lishiga olib kelmoqda.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, turizm xavfsizligi bo‘yicha milliy standartlarni ishlab chiqish va joriy etish muhim hisoblanadi. Ushbu standartlar turistik marshrutlar, transport, joylashtirish vositalari, ekskursiyalar, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik kabi barcha bosqichlarni qamrab olishi zarur.

Turizm xavfsizligini standartlar asosida yanada samarali boshqarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarbdir:

- 1) Raqamli nazorat tizimlarini joriy etish orqali audit va sertifikatlashni elektron platforma orqali yuritish;
- 2) Xodimlarni doimiy o‘qitish tizimini yaratish orqali xalqaro tajribaga asoslangan malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- 3) Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali standartlarga rioya qilmagan subyektlar uchun qat’iy javobgarlik choralari belgilash;
- 4) Investitsiyalarni jalb qilish orqali xavfsizlik infratuzilmasiga mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali innovatsiyalarni kengaytirish;
- 5) Standartlarga rioya qilinishini davlat tomonidan monitoring qilish orqali xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan standartlarni milliy sharoitga moslashtirib, hududlar kesimida

bosqichma-bosqich joriy etish orqali xavfsiz turizm muhitini yaratish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son farmoni (28.01.2022 y)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni (03.11.2022 y)
3. O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni (27.02.2023 y)
4. O‘z DSt 3220:2023 – “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar”
5. O‘z DSt ISO 21101:2022 – “Sarguzasht turizmi. Xavfsizlikni boshqarish tizimlari. Talablar”

<p style="text-align: center;"><b>Ф.Ахмеджанова, С.Вахобова</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Анализ правовых и практических мер по обеспечению безопасности туризма в Узбекистане</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье проанализированы правовые основы, практические меры и стандарты, направленные на обеспечение безопасности туризма в Узбекистане. В качестве основных проблем отмечены недостатки инфраструктуры, подготовки кадров и технического обеспечения. Автор подчеркивает необходимость разработки и внедрения единого национального стандарта по обеспечению безопасности в туризме.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> безопасность туризма, стандарты, Национальный стандарт Республики Узбекистан, ISO, управление рисками, санитарно-гигиенические нормы, система безопасности.</p>	<p style="text-align: center;"><b>F.Akhmedjanova, S.Vahobova</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Analysis of legal and practical measures to ensuring tourism safety in Uzbekistan</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article analyzes the legal framework, practical measures, and standards related to ensuring tourism safety in Uzbekistan. The main problems identified were shortcomings in infrastructure, personnel training and technical support. The author emphasizes the need to develop and implement a unified national standard to improve tourism safety.</p> <p><b>Keywords:</b> tourism safety, standards, National Standard of the Republic of Uzbekistan, ISO, risk management, sanitation and hygiene, safety system.</p>
--	--

**Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов** – СамИСИ таянч докторанти

**ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТИЗИМИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИНГ ЎРНИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

<p><b>Аннотация.</b> Ушбу мақолада зиёрат туризмнинг аҳамияти ва ўрни ҳақида ва ундан ташқари керакли хулоса ва таклифлар келтириб ўтилган. Албатта, бу ўринда хизматлар соҳасининг ўрни бекиёс. Ушбу мақолада хизмат кўрсатишнинг зиёрат туризмидаги ўрни ва унинг моҳияти, ҳозирги кунда қай даражада аҳамият касб этиши ҳақида тўхталиб ўтамиз ва таклифлар бериб ўтилади.</p> <p><b>Калит сўзлар:</b> зиёрат туризми, хизматлар соҳаси, рухият, маданият масжид черков, зиёратгоҳ, турист.</p>
--

**Кириш.** Зиёрат минг йиллар олдин пайдо бўлган биринчи сайёҳлик ҳаракати эди (Тимоти ва Олсен, 2006). Зиёрат туризми тадқиқот тушунчаси сифатида бозорнинг бошқа сегментидан фаркли ўлароқ, илгари деярли мавжуд бўлмаган ва фақат 1990-йилларга келиб илмий чуқур изланишлар олиб борилди. Бироқ, унинг илдизлари, асосан, социологлар ва антропологлар томонидан ишлаб чиқилган тушунчалар ва назарияларга бориб тақалади - бу фикрлар 1970-йиллардаги туризм адабиётида таҳлил қилинган. Маълумки, зиёрат туризми йилдан йилга ўсиб бораётган туризм соҳаси ҳисобланади. Бунга яққол далил ўлароқ йилига ўртача 330млн саёҳатчилар зиёрат туризми мақсадида саёҳат қилади. Зиёрат туризми бу рухият, маданият ва саёҳат жамаланган туризмнинг сегменти ҳисобланади. Юқоридагилар бутун бир саёҳатни ўз ичига олиб, эътиқодли одамлар ўз динлари билан муносабатларини мустаҳкамлаш учун борадиган масканларда бошқа турдаги хизматлардан ҳам фаол тарзда фойдаланмоқдалар. Зиёрат туризми ташриф буюриш мумкин бўлган шаҳар ёки маълум ҳудуддаги масжидлар ва черковларга ёки бошқа диний диққатга сазовор жойларга ташриф буюришни ўз ичига олиши мумкин Зиёрат туризми туристларни диний муносабат ва урф-одатларга эришиш учун тўлиқ ёки кучли туртки

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.